

TOSHKENT SHAHRIDA PIYODALAR BILAN BOG'LIQ YO'L-TRANSPORT HODISALARI TAHLILI

Qodirova Oyshaxon

(TDTU)

Oyshaxonqodirova5@gmail.com

Go'zal Rustamova

(TDTU)

Rustamova2464@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANOTATSIYA

MAQOLA TARIXI:

Received:19.07.2025

Revised: 20.07.2025

Accepted:21.07.2025

Mazkur maqolada Toshkent shahri ko'chalarida piyodalar ishtirokida sodir bo'layotgan yo'l-transport hodisalari (YTH) holati, ularning sabablari, oqibatlari hamda tahlili bayon qilingan. Tahlillar asosida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

KALIT SO'ZLAR:

piyoda, yo'l-transport hodisasi, xavfsizlik, shahar infratuzilmasi, svetofor, avariya, tahlil.

Kirish

Piyodalar yo'l harakati ishtirokchilari ichida eng zaif qatlam hisoblanadi. Ayniqs a, yirik shaharlarda, jumladan, Toshkentda harakat intensivligi yuqori bo'lgani sababli ularning hayoti va xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalaga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi YHXBB ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda piyodalar bilan bog'liq YTHlar soni kamaygan bo'lsa-da, ularning jiddiy oqibatlari xavotir uyg'otmoqda.



O‘zbekistonda 2023-yilda yo‘l-transport hodisalari oqibatida 2282 nafar fuqaro (2022-yilga nisbatan 74 nafarga kam), jumladan, 263 nafar bola vafot etdi. Bu haqda Senatdagi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi majlisida ma’lum qilindi.

Qayd etilishicha, 2023-yilda jami 16 mln dan ortiq qoidabuzarlik qayd etilgan, jumladan, 13 mln dan ko‘p qo‘pol qoidabuzarlik, 42 mingga yaqin transport vositasini mast holda boshqarish, 300 mingdan ortiq piyodalar qoidabuzarligi qayd etilgan. Majlisda bunga avtomobil yo‘llarida yo‘lovchilar xavfsizligini ta’minlash yuzasidan ta’sirchan nazorat to‘liq va samarali o‘rnatilmagani sabab qilib ko‘rsatilgan.

Toshkent shahar prokurori Erkin Yo‘ldashevning ma’lum qilishicha, 2023 yilda Toshkent shahrida yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq ochilgan jinoyat ishlari soni 2022 yilga nisbatan 326 taga ko‘paygan. YTHlarda 95 kishi halok bo‘lgan, ulardan 10 nafari bolalar. 1248 kishi jarohatlangan, ulardan 10 nafari doimiy nogiron bo‘lib qolgan. Jarohatlanganlar orasida 235 nafar bola bor. Ularning asosiy qismi quyidagi tumanlarda to‘plangan:

Chilonzor – 20%

Yunusobod – 18%

Sergeli – 16%

«Yil davomida 4 ming 384 ta avtomobilni mast holda boshqarish holati aniqlangan. Xususan, 26 ta og'ir yo'l-transport hodisasi oqibatida odamlar halok bo'ldi. Qo'zg'atilgan 1343 ta jinoyat ishining 348 tasini 18–25 yoshdagi haydovchilar sodir etgan. Yil davomida transport vositasini boshqarish vaqtida yonida haydovchilik guvohnomasi bo'lmagan 1417 nafar shaxs aniqlangan», dedi shahar prokurori.

Piyodalar bilan bog'liq YTHlarning kelib chiqishiga quyidagi sabablar turtki bo'ladi:

Yo'l-transport hodisalarining asosiy sabablari sifatida belgilangan tezlik me'yorini buzish, svetoforga e'tibor bermaslik, oraliq masofa saqlamaslik, piyodalarga yo'l bermaslik, quvib o'tish qoidalarini buzish, transport vositalarini spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar ta'sirida boshqarish, mobil telefonlardan foydalanib yo'lni kesib o'tish, piyodalarning belgilangan joydan o'tmasligi voyaga yetmaganlarga transport vositalarini berib qo'yish kabilar keltirilgan.

Ko'plab holatlarda YTHlar shoshilinch harakat, sabrsizlik yoki beparvolik natijasida yuz beradi. Ayniqsa, bolalar va yoshi katta fuqarolar orasida yo'l harakati qoidalarini bilmaslik yoki to'liq anglab yetmaslik xavfni oshiradi.

Piyodalar o'tish joylari kam yoki aniq ko'rsatilmagan.

Ko'plab joylarda yer osti va yer usti o'tish yo'laklari mavjud emas.

Aholi zich joylashgan hududlarda piyodalarga alohida yo'lak ajratilmagan.

Ayrim joylarda svetoforlar piyodalar uchun qulay sozlanmagan (vaqt yetarli emas, tugmasi ishlamaydi).

Piyodalar bilan bog'liq YTHlar ko'pincha jiddiy tan jarohatlariga, nogironlikka va o'lim holatlariga olib keladi. Bu esa nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy jihatdan ham katta zarar yetkazadi.

Toshkent shahrida piyodalar xavfsizligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Svetofor tizimlarini zamonaviylashtirish, aqlli svetoforlar o'rnatish.

Ko'proq piyodalar o'tish yo'laklarini tashkil qilish va ularni yoritish.

Piyodalar uchun alohida harakatlanish yo'laklarini joriy etish.

Maktab, bog'cha, bozor atrofidagi xavfli zonalarini belgilash va nazoratni kuchaytirish.

Aholi o'rtasida yo'l harakati madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish.

Harakatni avtomatik aniqlovchi kameralar sonini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi IIV YHXBB yillik hisobotlari.
2. A.X. Saidov. "Yo'l harakati xavfsizligi asoslari", Toshkent, 2020.
3. WHO Road Safety Report 2023.
4. Toshkent shahar hokimligi transport va yo'l infratuzilmasi departamenti ma'lumotlari.
5. Maqolalar to'plami – "Urban transport and safety", 2022.
6. O.Qodirova Piyodalar harakati xavfsizligini ta'minlashda bionikani qo'llash JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH. Vol. 3 No. 1 (2025). <https://spaceknowladge.com/index.php/JOISR/issue/view/29>
7. O.Qodirova Состояние обеспечения безопасности движения пешеходов в городских Modern Scientific Research International. Scientific Journal. Volume 3 Issue 1. 2025 y. <https://newarticle.ru/index.php/MSRISJ>

Internet ma'lumotlar

1. <https://lex.uz/docs/-7247917>
2. <https://gazeta.uz/> – O'zbekistonda yo'l-transport hodisalari va ularning statistikasi to'g'risida yillik yangiliklar.
3. <https://kun.uz/> – O'zbekistonning yo'l-transport hodisalari bo'yicha tahlil va statistika.
4. <https://qalampir.uz/> – Piyodalar va o'quvchilar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari va ularning statistikasi.
5. <https://ejarima.uz/> – Yo'l-transport hodisalaridagi kamchiliklar va ularning natijalari.